MUTAXASISLIK ATAMALARIDA GAPIRISH - BUGUNGI KUNNING DOLZARB TALABIDIR

Ikrom O‘lmasovich Muzrobov
Jamolxo‘jayev Kamolxo‘ja Raximjon o‘g‘li
Toshkent davlat transport universiteti
Transport tizimlari boshqaruvi fakulteti
TLA-7 guruh talabasi
Ilmiy rahbar O‘zbek (rus) tili kafedrasi ass.
Izzatullayeva Nigora Djoraxonovna
https://doi.org/10.5281/zenodo.7674316

Annotatsiya: Mazkur maqola transport sohasidagi malakali mutaxasislarni tayyorlashda ularning nutqiy va yozma savodxonligini, oshirish borasida terminlar ishtirokida gap tuzish va matn yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga bag‘shlangan.

Kalit so‘zlar: transport sohasi, mutaxassis, atama, til, tafakkur, madaniyat, davlat tili, ijtimoiy hodisa.

Annotation: This article devoted to the issues of developing the skills of forming sentences with the participation of terms and creating text in order to increase their verbal and written literacy in the training of qualified specialists in the field of transport.

Keywords: transport field, expert, term, language, thinking, culture, state language, social phenomenon.

Mamlakatimizning barcha sohalarida bo‘lgani kabi, transport tarmoqlarining jahon miqyosida innovatsion rivojlanishi va ularning hozirgi globallashuv hamda integratsiya jarayonlarini jadallashuvi sharoitida transport sohasidagi mutaxassis kadrlarni xorijiy tillar, ingliz va rus tillarini mukammal bilishni talab etilmoqda.

Hozirda kunda transport sohalarida faoliyat yuritayotgan soha bo‘yicha yetishib chiqayotgan mutaxassis kadrlar ham jahon tillari, jumladan ingliz va rus tillarida erkin muloqot qilish imkoniyatlariga ega bo‘lmoqdalar, bu esa faoliyat davomida ushbu sohaga rivojlangan mamlakatlarda yaratilayotgan innovatsiyalarni joriy qilish, o‘z sohalari bo‘yicha erishilgan yutuqlar va mavjud muammolar bilan yaqindan tanishishga keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bu jahon taraqqiyoti bilan bir qadam.

XIX asr boshlanish davridan o‘zbek tili asta sekin o‘z o‘rnini rus tiliga bo‘shatib bera boshladi. Barcha hujjatlar rus tilida yuritilib, muomalaga kirayotgan yangi terminlar o‘z holicha qabul qilindi. Bunday holat borgan sari o‘zbek ilmiy tilini

zaiflashtirib, keyinchalik ko‘plab sohalaridan o‘zbek tilidagi terminlarni batamom muomaladan chiqib ketishiga olib keldi. Bugungi kunda ko‘plab fanlar qatori transport sohasida ham o‘zbek tilidagi terminlarni boyitish talab etilmoqda. Shu bois, barcha jahon tillari qatori, o‘zbek tilidagi terminlarni, atamalarni jonlantirish, yuqoridagi va boshqa shunga o‘xshash muammolarni hal qilish, lozim. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnik tub o‘zgarishlar davrida noyob tushunchalar yuzaga kelmoqda. Ya’ni, yuqori saviyadagi ilmiy-texnik inqilob davrida ishlab chiqarish, fan va texnikaning barcha sohalarida yangidan yangi predmetlar va tushunchalar paydo bo‘la boshladi. Jumladan, o‘zbek tilidagi texnikaviy lug‘atlarda ham yangi atamalar (terminlar) pa paydo bo‘lmoqda. Qayd yetish lozimki, ingliz, rus tillaridan kirib kelayotgan texnik terminlarga kam e’tibor qaratilganligi sababli, mazkur terminologik tizim o‘zining to‘liq ifodasini topa olgani yo‘q. Hozirgi sharoitda ijtimoiy hayotning hamma jabhalarida yangicha fikr yuritilmoqda. Jumladan, bunday yondashuv ijtimoiy fanlarni to‘la qamrab oldi, chunki uning oqibati jamiyatda inson hayotiga, kelajak taraqqiyotiga, uni qamrab olgan olamga tegishlidir. Shuning uchun ham kishilar, millatlar va davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda birinchi o‘rinda ijtimoiy aloqalar ilgari surilmoqda. Respublikamizda ham bu sohadagi holat butunlay o‘zgardi. Tashqi aloqalar yanada rivojlanib ketdi. Dunyoning juda ko‘p mamlakatlari bilanjuda ko‘p sohalarda aloqalarga keng yo‘l ochildi. Bu omillar o‘zbek tilida yangi terminlarni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Shu boisdan fan va texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida terminlarni tarjima nuqtai nazaridan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’kidlash joizki, terminlar masalasi bilan shug‘ullangan deyarli barcha olimlar ularning ta’rifini berishga urinib ko‘rishgan. Chunki har bir soha va tarmoqning termini borki, u o‘sha soha, tarmoq doirasida qo‘llanadi, yana ham aniqroq qilib aytganda, muayyan kasb-hunar yoxud mutaxassislikka ega bo‘lgan kishilar ko‘pincha u yoki bu sohaning o‘ziga xos terminlari bilan ish ko‘radi. Bu esa kasb-hunar egasining nutqini shakllantiradi, o‘zaro nutq madaniyati va muomala uchun shart-sharoit yaratadi. Terminologiya muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan terminlar jami sifatida ta’riflanadi. Har qanday tushunchalar tizimiga muayyan terminlar tizimi to‘g‘ri keladi. Terminologik tizimlar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi. Terminlar umumiste’moldagi so‘zlardan farqli ravishda joriy qilinib ularning qo‘llanishi ma’lum darajada nazorat ostida bo‘ladi. “Terminlar paydo bo‘lib qolmaydi”, aksincha, ularning zaruriyati anglangan holda “o‘ylab topiladi”, “ijod qilinadi”. Masalan, bo‘lajak transport sohasi mutaxassislarning yozma yoki og‘zaki nutqida *avtobekat*, *avtotyuning*, *logistika* kabi tor doiradagina qo‘llaniladigan terminlar ishlatilishi tabiiy bir holdir.

O‘z-o‘zidan ayonki, aynan mutaxassislik doirasidagi terminlar transport sohasidan uzoqroq biror kasb egasining nutqida ishlatilmaydi. Shu bilan birga,

transport sohasining qator terminlari ham borki, ular muayyan til egalarining deyarli barchasi nutqida teng barobar ishlatilaveradi. Masalan, vokzal, aeroport, poyezd, vagon, lokomotiv, kabilar shular jumlasidandir. Shuni ham aytish kerakki, tilda an'anaviy tarzda qadimdan saqlanib kelinayotgan iqtisodiy atamalar bilan zamonaviy iqtisodiy terminlar o'rtasida juda katta farq bor. Qadimgi transport atamalarining miqdori ancha cheklangan bo'lsa, hozirgi yangi davr, ya'ni bozor iqtisodiyoti sharoitida transport terminlariga ehtiyoj ortishi munosabati bilan transport sohasiga oid terminlar beqiyos boyib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda: Zamonaviy texnologiyalarining turli sohalariga kirib kelishi orqali ma'lum bir til lug'at tarkibida yangi so'z va tushunchalar paydo bo'lmoqda. Shu o'rinda Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning "ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, hamda Markaziy Osiyo transport kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish sohasida strategik ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirishga e'tibori qaratildi. Buning asnosida biz yoshlar o'z, tanlagan kasbimizning yetuk mutaxasisi bo'lishimiz va yurtimiz kelajagi uchun o'z hissamizni qo'shishimiz darkor.

Shu jumladan, Ona tilimizning turli terminologik tizimlarini yanada teranroq tadqiq etish, ularni terminologiyaning xilma-xil masalalari bo'yicha atroflicha tadqiq qilish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-sonli qarori //Xalq so'zi, 11.12.2012 й., 240 (5660)-son

2. Xusanov N. "Mutaxassislik tili" fanidan ma'ruza matnlari. -T.: TMI, 2001. 24 b. 3.Мусаев. Қ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Фан, 2005. – Б.115

4. Ro'ziev F. Mustaqillikning iqtisodiy asoslari. T. 1999,